

**“Smart bank” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining
2023 yil 6 fevraldagi
06-02/1-sonli yig‘ilish bayonnomasiga
7-ilova**

Bank tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ro‘yxat raqami: II-10

Sana: 20.02.2023 yil

Imzo

**“SMART BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
ICHKI AUDIT BOSHQARMASI
NIZOMI**

Toshkent – 2023 yil

Mazkur “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining Ichki audit boshqarmasi Nizomi” (keyingi o‘rinlarda Nizom deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari, “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda Bank deb yuritiladi) Ustavi va ichki meyoriy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Ichki audit boshqarmasining tashkil etilishi, uning maqsadi, vazifalari, huquq va majburiyatlari hamda audit faoliyati bo‘yicha javobgarliklarini belgilab beradi.

Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ichki audit - bankning ichki nazorat tizimi, shu jumladan tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruv tizimi va jarayonlarining sifati, ularning monandligi va samaradorligiga oid mustaqil bahoni taqdim etish bilan bog‘liq faoliyat;

Ichki audit boshqarmasi - bankda ichki auditni doimiy tarzda amalga oshiruvchi mustaqil tarkibiy tuzilma;

ichki audit standartlari - Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining Banklarda ichki auditga oid tamoyillari, Ichki auditorlar institutining Ichki auditning xalqaro kasbga oid standartlari, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining Auditning xalqaro standartlari.

2-bob. Ichki audit boshqarmasining maqsadlari

2. Ichki audit boshqarmasining asosiy maqsadi - bank rahbariyatiga tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruv tizimi va jarayonlarining sifati, ularning monandligi va samaradorligiga oid mustaqil bahoni taqdim etish orqali Bank Kuzatuv kengashi (bundan keyin matnlarda Kengash deb yuritiladi) va Bank Boshqaruviga bank faoliyatining maqsadlariga erishishida ko‘maklashish hisoblanadi.

3. Ichki audit boshqarmasi xodimlarining soni Bank aktivlari miqdori va tavakkalchilik darajasi, bank operatsiyalari xususiyati va ko‘lami hamda Bankning tashkiliy tuzilishidan kelib chiqib shakllantiriladi.

3-bob. Ichki audit boshqarmasining mustaqilligi va xolisligi

4. Ichki audit boshqarmasi bankning tekshirilayotgan faoliyatidan va Bank Boshqaruvidan mustaqil bo‘lib, u Kengash va Audit qo‘mitaga bevosita bo‘ysunadi.

5. Ichki audit boshqarmasiga Bosh auditor rahbarlik qiladi. Bosh auditor Kengash qarori bilan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bosh auditor Ichki audit boshqarmasi faoliyati ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi va Kengash tomonidan tasdiqlangan lavozim yo'riqnomasi asosida ish yuritadi.

6. Ichki audit boshqarmasi xodimlari Bosh auditor tavsiyasiga binoan bank Audit qo'mita qaroriga asosan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Ichki audit boshqarmasi xodimlarining lavozim yo'riqnomasi Bosh auditor tomonidan ishlab chiqiladi va Kengash tomonidan tasdiqlanadi. Ichki audit boshqarmasi xodimlari bilan Kengash o'rtasida aniq vazifalar bo'yicha qo'shimcha lavozim majburiyatlari imzolanishi mumkin.

7. Boshqaruv a'zolari, bankda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar va boshqaruv a'zolari bilan aloqador shaxslar bir vaqtning o'zida Ichki audit boshqarmasi xodimi, shu jumladan bosh auditor sifatida faoliyat yurita olmaydi.

8. Audit bo'yicha yillik reja (bundan buyon matnda yillik reja deb yuritiladi) Bosh auditor tomonidan ishlab chiqiladi va Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

Ichki audit boshqarmasi o'zining tashabbusi bilan Bankdagi barcha soha va amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ichki auditorlik tekshiruvini (bundan buyon matnda auditorlik tekshiruvi deb yuritiladi) o'tkazishi mumkin. Ichki audit boshqarmasining hisobotlari Ichki audit boshqarmasi xodimlarining mustaqil fikr va mulohazalariga asoslanadi.

9. Ichki audit boshqarmasi xodimlariga, shu jumladan Bosh auditorga nisbatan Bank Boshqaruvi yoki boshqa shaxslar tomonidan o'tkazilgan har qanday bosim va ish faoliyatiga qilingan to'sqinlik to'g'risida Kengashga darhol bu haqda xabar beriladi.

10. Ichki audit boshqarmasi xodimlari, shu jumladan Bosh auditorning xolisligi va beg'arazligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bank operatsiyalarini va boshqa tadbirlarni amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilish, jumladan moliyaviy hujjatlarni yoki tavakkalchiliklarni qabul qilishni ko'zda tutuvchi hujjatlarni imzolash jarayonlarida ishtirok etishi qat'iy taqiqlanadi.

11. Ichki audit boshqarmasi xodimlari qaytariladigan vazifalarni amalga oshirishlari natijasida ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati yomonlashuvining oldini olish maqsadida Bosh auditor Ichki audit boshqarmasi xodimlari rotatsiyasini besh yilda bir martadan kam bo'lmagan davriylikda amalga oshiriladi.

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun Ichki audit boshqarmasi xodimlarining Ichki audit boshqarmasi doirasidagi rotatsiyasi hamda Bank xodimlarining boshqa tarkibiy tuzilmalardan Ichki audit boshqarmasiga yoki Ichki audit boshqarmasi xodimlarining boshqa tarkibiy tuzilmalarga rotatsiyasi, xodimlarning vakolati va professionalizmiga zarar yetkazmagan holda Audit qo'mitaning qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Ichki audit boshqarmasi xodimlari Bank yoki uning tarkibiy tuzilmalarida oxirgi o'n ikki oy ichida o'zlari faoliyat yuritgan soha yoki tarkibiy tuzilmaning tekshiruvida ishtirok etishi taqiqlanadi.

Ichki audit boshqarmasi xodimi auditorlik tekshiruvi predmeti bo'lgan hujjatlarni ishlab chiqishda yoki operatsiyani amalga oshirishda bevosita ishtirok etgan bo'lsa, u ushbu hujjat yoki operatsiyalarning auditorlik tekshiruvida ishtirok etishi mumkin emas.

13. Bosh auditor har yili Ichki audit boshqarmasining yillik byudjetini ishlab chiqadi. Yillik byudjet Kengash tomonidan tegishli yilning 1 yanvariga qadar tasdiqlanishi lozim. Kengash yillik byudjetni tasdiqlash vakolatini Audit qo'mitaga o'tkazishi mumkin.

14. Yillik byudjet Ichki audit boshqarmasi o'z vazifalarini to'liq va sifatli bajarishi uchun hamda yillik reja yoki Bank risk-profilidagi o'zgarishlar ehtimolini inobatga olgan holda yetarli va moslashuvchan bo'lishi lozim.

Yillik byudjet Ichki audit boshqarmasi xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha xarajatlarni, malaka oshirish va autsorsing xarajatlarini, xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarni va Ichki audit boshqarmasi faoliyatiga oid boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

15. Ichki audit boshqarmasi xodimlari, shu jumladan Bosh auditorning ish haqi miqdori Kengashi tomonidan belgilanadi. Manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirmaslik maqsadida Ichki audit boshqarmasi xodimlarini, shu jumladan Bosh auditorni qo'shimcha moddiy rag'batlantirish va mukofotlash vakolati Audit qo'mitaga o'tkazilishi mumkin. Ichki audit boshqarmasi xodimlarini, shu jumladan Bosh auditorni rag'batlantirish masalasi Bankning moliyaviy ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lmasligi, shuningdek kelgusida manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmasligi hamda ularning mustaqillik va xolisligiga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

Rag'batlantirish tizimi Ichki audit boshqarmasi maqsadi va vazifalariga qarshi xarakatlanishiga imkon bermaslik maqsadida Ichki audit boshqarmasi xodimlari (shu jumladan Bosh auditorga)ga ish haqi Bosh auditor tomonidan tasdiqlangan tabelga asosan to'lanadi. Xizmat safari xarajatlari esa belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisobotlarga muvofiq Bosh auditor tomonidan nazoratga olingan holda Bankning ichki meyoriy hujjatlariga asosan qoplab beriladi.

16. Ichki audit boshqarmasi xodimlariga umum qabul qilingan tartiblar asosida Bankning kreditlash mahsulotlaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

17. Xolislikni ta'minlash maqsadida Ichki audit boshqarmasi xodimlari ichki nazoratga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ularni joriy etish yoki amalga oshirish jarayonida ishtirok etmasliklari lozim. Bundan ichki auditga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda Ichki audit boshqarmasining tavakkalchiliklarni boshqarish yoki

ichki nazoratga doir fikr va mulohazalarini berishi mustasno.

4-bob. Ichki audit boshqarmasining prinsiplari

18. Ichki audit boshqarmasi xodimlari o'z faoliyatini mustaqillik, xolislik va halollik, kasbiy bilimga egalik hamda axborotning maxfiyligi kabi asosiy prinsiplarga asoslanib yuritadilar. Xodimlar quyidagi prinsiplarga amal qilishlari lozim:

mustaqillik prinsipi. Auditor fikr bildirishda va xulosa qilishda mustaqil bo'lishi kerak. Auditor taxminlarga asoslanib fikr bildirishdan xoli bo'lishi va o'zining obro'sini tushiradigan faktlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Ichki audit boshqarmasi mustaqilligiga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, auditorlik xizmatlari ko'rsatishni rad etishi kerak.

xolislik va halollik prinsipi. Auditor jamiyat manfaatlari ustuvorligiga rioya etishi, beg'araz bo'lishi, manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa shaxslarning bosimlari sababli o'zining kasbga oid fikr-mulohazasida tavakkalchilik qilmasligi, auditorlik tashkilotining obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Shuningdek, auditor tomonidan o'tkazilgan audit yakuni bo'yicha fikr va xulosa berilishida korrupsiya (ya'ni poraxo'rlik, mansabdan foydalangan holda uni suiste'mol qilish, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, o'z vazifasi bo'yicha belgilangan majburiyatlarini bajarishni paysalga solish, ta'magirlik kabi) illatlarga yo'l qo'yilmaydi.

chuqur kasbiy bilimga egalik prinsipi. Auditor ushbu Nizom talablariga rioya etishi, yetarli darajada chuqur kasbiy bilimga ega bo'lishi hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarini Ichki audit boshqarmasi tarkibida sifatli auditorlik xizmatlarini ko'rsatish uchun yetarli bo'lishi kerak. Shuningdek, u auditni amalga oshirishdagi murojaat, muloqot, muzokara va munozara jarayonlarida estetik meyorlarga va odob-ahloq qoidalari va standartlariga amal qiladi. Auditor kasbiy bilim darajasini ma'lumotlarni yig'ish va qabul qilishda, aniqlangan holatlarni tekshirish va baholashda hamda boshqa Ichki audit boshqarmasi xodimlari bilan o'zaro aloqada bo'lishda namoyon etadi. Yuqori lavozimlarni egallagan auditorlar mazkur talablardan tashqari natijalarni baholash va ularga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

axborotning maxfiyligi prinsipi. Auditorlar auditorlik xizmatlari ko'rsatish jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor qilishga hamda o'zgalarga berishga haqli emas, bundan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun va bank siri to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

5-bob. Ichki audit boshqarmasining vazifalari

19. Bankning barcha operatsiyalar turlari va uning barcha tarkibiy tuzilmalari faoliyati ichki auditorlik tekshiruv doirasiga kiradi. Ichki audit faoliyati Bank va uning nazorati ostidagi tashkilotlarning ichki nazorat va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini va ular tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarni tekshirishni hamda ularning samaradorligini baholash va takliflar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

20. Ichki audit boshqarmasi quyidagilarni mustaqil tahlil qilishi va baholashi lozim:

a) Bankning risk-profilini inobatga olib, ichki nazorat (shu jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish, komplayens-nazorat va boshqalar), tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruv tizimlarining samaradorligini va ularning to'g'ri yo'lga qo'yilganligini;

b) Bank oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda bank biznes jarayonlari, ma'muriy va operatsion jarayonlarning samaradorligini;

v) axborot tizimlarining ishonchliligini, to'liqligini va samaradorligini hamda ma'lumotlarning dolzarbligini, aniqligini, qulayligini, shuningdek maxfiylik ta'minlanganligini;

g) qonunchilik hujjatlariga, jumladan Markaziy bankning prudensial talablariga hamda Bankning ichki hujjatlariga rioya etilishini;

d) Markaziy bank, boshqa davlat organlari va tashqi audit tomonidan aniqlangan kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilganligini;

ye) aholi va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi samaradorligini;

yo) aktivlarning butligini va boshqalar.

21. Ichki audit boshqarmasi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini baholashda quyidagilarni tekshiradi:

a) tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha tarkibiy tuzilma faoliyati, jumladan mazkur tarkibiy tuzilma tomonidan qabul qilingan qarorlarni hamda uning vazifa va vakolatlaridan kelib chiqib, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilganligini;

b) Bankning risk-appetitini hamda bank faoliyati risk-appetit doirasida ekanligini;

v) tavakkalchiliklarni boshqarishga, shu jumladan yirik tavakkalchiliklarga doir ma'lumotlar Markaziy bank, Kengashi va Bank Boshqaruviga taqdim etilganligini;

g) tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi, jumladan bank faoliyatida yuzaga kelgan tavakkalchiliklarni aniqlash, o'lchash, baholash, boshqarish, o'z vaqtida chora ko'rish va hisobdorlik jarayonlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligini;

d) tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha axborot tizimlarining maqbulligini, ulardagi ma'lumotlar aniqligi, ishonchliligi va to'liqligini;

ye) tavakkalchiliklarni baholash usullari ishlab chiqilganligi va ularning qo'llanilishi, jumladan tavakkalchiliklarni baholash bosqichlari ketma-ketligi va usullarda qo'llaniluvchi ma'lumotlar dolzarbligi va ishonchliligini.

22. Tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha tarkibiy tuzilma o'zining Bankda yuzaga kelgan tavakkalchiliklar bo'yicha bildirgan xulosalari Bank Boshqaruvining fikr-mulohazalaridan farqlanganda Kengashni xabardor etmagan bo'lsa, bu haqidagi xabarni Kengashga Bosh auditor yetkazishi lozim.

23. Kapital monandligi va likvidlilik ko'rsatkichlarini tekshirishda Ichki audit boshqarmasi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

a) kapital monandligini baholash tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga, shu jumladan kapital monandligi o'rnatilgan prudensial talablarga muvofiqligiga;

b) likvidlilik holatini baholash va monitoring qilish tizimlari hamda jarayonlari bankning risk-profiliga muvofiqligiga, shuningdek ularda tashqi iqtisodiy muhit hisobga olinganligiga va likvidlilik ko'rsatkichlari minimal prudensial normativlar doirasida ekanligiga;

v) kapital va likvidlilikni stress-testdan o'tkazish jarayonlariga, shu jumladan stress-testlar davriyligiga, maqsadlariga, ularda qo'llanilgan ssenariylar maqbulligiga, stress-testdagi ehtimoliy xatoliklar va ularda foydalanilgan jarayonlar ishonchliligiga.

24. Ichki nazorat tuzilmasini auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirilishi bilan bog'liq tavakkalchiliklarni boshqarish samaradorligi baholanadi.

25. Korporativ boshqaruvga oid tekshiruvlarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

a) korporativ boshqaruv samaradorligiga, jumladan vakolat va vazifalarning aniq tarzda taqsimlanganligiga hamda yetarli darajadagi hisobdorlikning mavjudligiga;

b) manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan choralarga va noo'rin hatti-harakatlar haqida xabar qilish tizimining ijro holatiga;

v) bank xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishining ijro holatiga va uning nazoratiga;

g) mehnatga haq to'lash tizimi Bank biznes-rejasi, rivojlantirish strategiyasi, maqsadi va tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan choralarga muvofiqligiga;

d) Bank tomonidan manfaatdor tomonlarga oshkor etiladigan, shu jumladan veb-saytda joylashtirib borishi zarur bo'lgan ma'lumotlar ishonchli, aniq, to'liq ekanligiga hamda ular o'z vaqtida va davriy ravishda taqdim etib borilishiga.

26. Moliya masalalari yuzasidan quyidagilarni tekshiradi:

a) moliya masalalari bilan ishlovchi tarkibiy tuzilmalarning faoliyati ularning vazifa va vakolatlaridan kelib chiqib to'g'ri yo'lga qo'yilganligini;

b) moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlash, ularni yig'ish, baholash hamda hisobotlarni tayyorlashda ishlatiladigan ma'lumotlar hamda jarayonlarning to'liqligini va to'g'ri yo'lga qo'yilganligini;

v) moliyaviy hisobotlarni nazorat qilish jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilganligini, shu jumladan buxgalteriya hisobvaraqlari va moliyaviy hisobotlarning aniqligini hamda haqqoniyligini.

27. Ichki audit boshqarmasi quyidagilarga ham mas'ul hisoblanadi:

a) Kengashni auditorlik tekshiruvi asosida tayyorlangan Bankning joriy holati va uning ichki nazorat tizimi samaradorligiga oid haqqoniy va mustaqil ma'lumotlar bilan ta'minlash;

b) bank faoliyati, shu jumladan undagi ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari va biznes-jarayonlar tashkil qilinishi samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish va ularni Kengash yoki Audit qo'mitaga kiritish;

v) Ichki audit boshqarmasining avvalgi tekshiruvlari, shuningdek Markaziy bank va tashqi auditorlar tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bo'yicha bank faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklar va kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;

g) Bank rahbariyatiga va Markaziy bankka aniq, ishonchli va dolzarb hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilishi maqsadida tavakkalchiliklarni boshqarish va hisobotlarni tayyorlash bo'yicha tarkibiy tuzilmalarning o'zaro ishlash samaradorligini baholash;

d) Kengash so'rovlari asosida maxsus tekshiruvlarni o'tkazish yoki ushbu tekshiruvlarni o'tkazishda ko'maklashish;

ye) malaka oshirish va tajriba almashish maqsadida banklar va boshqa tashkilotlarning ichki audit xizmatlari bilan hamkorlik qilish;

yo) tashqi auditorlar va Markaziy bank bilan hamkorlik qilish;

j) auditorlik tekshiruvini tasdiqlangan yillik byudjet doirasida amalga oshirish.

6-bob. Bosh auditorning vazifalari va huquqlari

28. Bosh auditor bankda muhim ahamiyatga ega xodim hisoblanadi va u quyidagilarga mas'ul hisoblanadi:

Ichki audit boshqarmasi faoliyatini tashkillashtirishga, boshqarishga va muvofiqlashtirishga;

Ichki audit boshqarmasi xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlashga;

Ichki audit boshqarmasi o'z vazifa va funksiyalarini bajarishini nazorat qilishga;

yillik rejani ishlab chiqishga, uni Kengashga tasdiqlash uchun kiritishga va

undagi vazifalar bajarilishini ta'minlashga;

Ichki audit boshqarmasi faoliyatini qonunchilik hujjatlari va mazkur Nizomga muvofiqligini ta'minlashga;

ichki siyosat va ichki audit tartib-taomillarini ishlab chiqishga va ularning ijro etilishini ta'minlashga;

Ichki audit boshqarmasi xodimlari tomonidan bankning ishbilarmonlik va odob-axloq qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishga;

Ichki audit boshqarmasi xodimlarini doimiy ravishda kasbiy malakasini oshirib borilishini ta'minlashga;

zarur choralar ko'rilishi uchun auditorlik tekshiruvlari natijasida tayyorlangan hisobotlarni Kengash va/yoki Audit qo'mita hamda Bank Boshqaruviga taqdim etilishini ta'minlashga;

yillik reja ijro holatiga, shuningdek auditorlik tekshiruvlari natijasida aniqlangan qoidabuzarliklar va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Ichki audit boshqarmasi takliflarining Bank Boshqaruvi tomonidan bajarilishi bo'yicha ma'lumotni davriy ravishda Kengash va/yoki Audit qo'mitaga taqdim etilishini ta'minlashga;

Ichki audit boshqarmasi vakolatlari doirasida tashqi auditorlar, Markaziy bank va boshqa davlat organlari bilan doimiy ravishda hamkorlik qilinishini ta'minlashga;

Ichki audit boshqarmasi o'z vazifalarini amalga oshirish jarayonida to'sqinlik qilayotgan holatlar yuzasidan Kengash, Audit qo'mita va Bank Boshqaruvini xabardor qilishga;

Ichki audit boshqarmasini mas'uliyat, tartib va rostgo'ylik bilan vijdonan boshqarishga, xizmat vazifasini bajarishda aniqlagan ma'lumotlarining maxfiylikini ta'minlashga;

lavozim yo'riqnomasida belgilangan boshqa vazifalarga.

29. Bosh auditor quyidagilarga haqli:

zarur hollarda rejadan tashqari auditorlik tekshiruvi o'tkazilishini tashkil qilish;

Kengash va/yoki Audit qo'mitaning navbatdan tashqari majlisini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etish;

Kengash, Bank Boshqaruvi va qo'mitalar yig'ilishida ovoz berish huquqisiz ishtirok etish;

Ichki audit boshqarmasi o'z vazifalarini bajarishi uchun to'liq va so'zsiz ravishda har bir binoga (xonaga) kirish, bank faoliyatiga daxldor istalgan hujjatlar, shu jumladan hisobot, bayonnoma, yozuvlar, elektron fayllar, bank axborot tizimlaridan foydalanish hamda Bank tarkibiy tuzilma rahbarlari va mas'ul xodimlaridan ma'lumot va izohlar olish;

ichki audit faoliyatini amalga oshirishda maxsus va/yoki maqsadli audit tekshiruvini o'tkazish zarurati yuzaga kelganda, tashqi mutaxassis (ekspert)lar

xizmatidan foydalanish.

7-bob. Ichki audit boshqarmasi xodimlarining vakolatlari va majburiyatlari hamda javobgarligi

30. Ichki audit boshqarmasi xodimlari tekshiruv o'tkazish jarayonida quyidagi vakolatlarga egadirlar:

auditorlik tekshiruvining predmeti hisoblangan barcha zaruriy hisobotlar, tahlillar, bayonnomalar, yozuvlar, fayllar, ma'lumotlar va bank faoliyatiga bog'liq boshqa hujjatlarni (elektron va/yoki qog'oz ko'rinishida) tekshirilayotgan subyektlardan talab qilish;

auditorlik tekshiruvida vujudga kelgan savollar bo'yicha tekshirilayotgan subyektlardan yozma yoki og'zaki tushuntirishlar olish;

zarur hujjatlardan nusxalar olish;

zarur hollarda hujjatlarning asl nusxalarini belgilangan tartibda olish;

tekshirish o'tkazish maqsadida Bankning barcha binolariga (xonalariga), shu jumladan naqd pul va qimmatliklar saqlanayotgan binolarga (xonalarga), shuningdek axborot tizimlari, elektron va qog'oz arxivlariga kira olish;

auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan so'ng aniqlangan kamchilik va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish;

qonunchilik hujjatlari va ichki hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlari.

31. Ichki audit boshqarmasi xodimi o'z vazifalarini amalga oshirish jarayonida to'sqinlik qilayotgan holatlar yuzasidan zudlik bilan Bosh auditorni xabardor qiladi.

32. Ichki audit boshqarmasi xodimlari quyidagi holatlarda javobgar hisoblanadilar:

o'tkazilgan audit yakuni bo'yicha fikr va xulosa berilishida korrupsiyaga yo'l qo'yish, ya'ni poraxo'rlik, mansabdan foydalangan holda uni suiste'mol qilish, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, o'z vazifasi bo'yicha belgilangan majburiyatlarini bajarishni paysalga solish, ta'magirlik qilish;

audit tekshiruvida aniqlangan holatlarni yoritib berishda ma'lumotlarni qasddan buzib, ma'lumotlarning mazmunini o'zgartirib, aniqlangan ma'lumot va holatlarni auditdan yashirgan holda dalolatnoma rasmiylashtirish;

audit tekshiruvlarida aniqlangan yoki ma'lum bo'lib qolgan mablag'lar o'zlashtirishi, o'g'rilik, Bankka va uning mijozlariga yetkazilgan moddiy zararlarga ko'z yumish, bunday holatlarni dalolatnomaga kiritmaslik, ularni ma'lum qilmaslik.

auditorlik tekshiruvi natijalarini buzib (o'zgartirib) ko'rsatish;

o'z xizmat vazifalarini bajarish paytida olingan ma'lumotlar hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi har qanday ma'lumot maxfiyligini

ta'minlamaslik;

o'z xizmat vazifalarini bajarish paytida olingan ma'lumotlardan shaxsiy maqsadlarda yoki uchinchi shaxs manfaatlari yo'lida foydalanish;

Bankning tegishli tarkibiy tuzilmalaridan olingan hujjatlar butligini ta'minlamaslik va ularni qaytarmaslik;

o'z xizmat vazifalarini mas'uliyat, tartib va rostgo'ylik bilan vijdonan bajarmaslik;

Etika kodeksi qoidalariga amal qilmaslik;

qonunchilik hujjatlari va bankning ichki hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

33. Ichki audit boshqarmasi xodimlari o'z vazifalarini bajarmaganliklari (lozim darajada bajarmaganliklari) uchun javobgardirlar. Bunda ularga nisbatan o'z vazifalarini bajarmagan holatlarda va/yoki lozim darajada bajarmaganliklari aniqlansa Mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy jazo turlari qo'llaniladi.

8-bob. Ichki audit boshqarmasi xodimlariga qo'yilgan talablar

34. Ichki audit boshqarmasi xodimlari quyidagi talablarga javob berishlari kerak: oliy ma'lumotga ega bo'lishi;

Ichki audit boshqarmasining xodimlari jamoaviy ravishda tavakkalchiliklarni boshqarish, prudensial normativlar (shu jumladan, kapital monandligi va likvidlilik ko'rsatkichlari), korporativ boshqaruv, komplayens-nazorat va moliya-iqtisod masalalarini tekshira olish va ularni tahlil qilib borish uchun bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi;

bank tizimida tavakkalchiliklarni boshqarish, aktiv va passivlarni boshqarish, kreditlash, valyuta, pul muomalasi yoki buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan bog'liq tarkibiy tuzilmalarning birida yoki bir nechtasida yoki tashqi auditor sifatida kamida bir yillik ish tajribasiga ega bo'lishi;

Bosh auditor bank tizimida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi;

bank sohasiga oid qonunchilik hujjatlarini va Markaziy bank tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi;

buxgalteriya hisobi va hisobotiga doir qonunchilik hujjatlari va halqaro standartlar hamda auditning halqaro standartlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi.

9-bob. Ichki auditni o'tkazishga qo'yilgan talablar

35. Bank Boshqaruvi a'zolari, Boshqaruvga bo'ysinuvchi barcha xodimlar, shuningdek Bankka aloqador boshqa shaxslar auditorlik tekshiruvini o'tkazishda qatnashishga haqli emas.

36. Auditorlik tekshiruvlari Kengash tomonidan tasdiqlangan yillik rejaga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, yillik rejaga kiritilgan audit obyektlarida o'tkaziladigan audit tekshiruvlari tavakkalchilikning mavjudligi va darajasidan kelib chiqib tanlov asosida amalga oshiriladi.

37. Yillik reja tavakkalchiliklarga asoslangan bo'lishi lozim. Yillik rejani ishlab chiqishda tavakkalchiliklarni har tomonlama baholash natijalari, Bosh auditorning asoslantirilgan mulohazalari, shuningdek Kengash va Bank Boshqaruvidan olingan taklif va mulohazalar inobatga olinishi mumkin. Ichki audit boshqarmasi faoliyatining samaradorligi va monandligini ta'minlash maqsadida yillik reja bir yilda kamida bir marotaba tegishli yilning 1 yanvariga qadar tasdiqlanadi.

Zarur hollarda yillik rejaga Kengashning qaroriga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Ichki audit boshqarmasining ishchanlik va kadrdar butligi holatidan kelib chiqib, Bosh auditor tomonidan obyektlarining yillik rejadagi tekshiruv vaqtlari almashtirilishi, o'zgartirilishi mumkin.

38. Bank Boshqaruvi tomonidan Ichki audit boshqarmasiga auditorlik tekshiruvini yoki boshqa vazifalarni bajarish to'g'risida taklif kiritilsa va ushbu taklif Kengash tomonidan tasdiqlangan audit xizmati maqsadlariga zid kelsa yoki auditorlik dasturining samarali amalga oshirilishiga xalaqit bersa, Ichki audit boshqarmasi ushbu taklifni rad etishga haqli.

Ichki audit boshqarmasi tomonidan Kengash, Audit qo'mita talablariga binoan va Bank Boshqaruv raisining buyrug'i asosida alohida masalalar bo'yicha maxsus tekshirishlar o'tkazadi.

Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan tekshirishlarda audit xizmati faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha ko'maklashadi.

39. Tavakkalchiliklarga asoslangan yillik rejada quyidagi omillar hisobga olinishi mumkin:

Bankning risk-profil, shu jumladan risk-profilida ko'zda tutilgan yirik tavakkalchiliklar;

ichki nazorat tizimidagi mavjud zaifliklar;

Bankning biznes-rejasi bo'yicha kutilayotgan natijalar va Kengash tomonidan belgilangan vazifa va takliflar;

auditorlik tekshiruvini o'tkazishda yillik byudjetdan hamda Ichki audit boshqarmasi xodimlarining salohiyatidan imkon darajasida samarali foydalanish.

40. Yillik reja asosida auditorlik tekshiruviga chiqishdan oldin batafsil auditorlik tekshiruvi dasturi Bosh auditor tomonidan ishlab chiqiladi va Audit qo'mitada tasdiqlanadi.

41. Auditorlik dasturi auditorlik tekshiruvi maqsadlarini, tekshirish soha va

yoʻnalishlarini, batafsil ish rejasini, tekshiruvlar grafigini, audit predmeti boʻlgan har bir yoʻnalishni tekshirish tartib-taomillari tavsifini, auditorlik tekshiruvlarida ishtirok etuvchi ichki auditorlar va boshqa shaxslarning roʻyxatini oʻz ichiga olishi kerak.

Auditorlik tekshiruvini amalga oshirish jarayonida auditorlik dasturiga oʻzgartirishlar kiritilishi mumkin. Oʻzgartirishlar yozma ravishda hujjatlashtiriladi va belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

42. Auditorlik tekshiruvini oʻtkazish davriyligi audit oʻtkaziladigan har bir sohaga oid tegishli tavakkalchiliklarni baholashga asoslangan boʻlishi lozim.

10-bob. Audit tekshiruvining usullari va turlari

43. Ichki audit boshqarmasi zaruratga koʻra quyidagi yoʻnalishlarda audit tekshiruvlarini amalga oshirishi mumkin:

tasdiqlovchi audit - bunda asosan Bankda amalga oshirilgan barcha bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobi (hisob registrlari)da toʻgʻri aks ettirilganligini, shu jumladan birlamchi hujjatlar asosida oʻtkazilganligi tekshiriladi.

maqsadli tizimli audit - bu bosqichda bank operatsiyalarini nazorat qilish tizimi kuzatiladi va ichki nazorat tizimi samarali tashkil etilgan boʻlsa, xato va kamchiliklarni aniqlash uchun jiddiy tekshiruv oʻtkazishga hojat qolmaydi.

tavakkalchilikka asoslangan audit - bunda tizimni nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan Boshqaruv qarorlariga baho beriladi. Mazkur audit yoppasiga yoki tanlov yoʻli bilan oʻtkaziladigan tekshiruv boʻlib, Bankning tarkibiy tuzilmasi faoliyatidan kelib chiqadi va obyektlarni tekshirish bilan yakunlanadi.

44. Ichki audit boshqarmasi oldiga qoʻygan maqsadlarga erishish, auditorlar faoliyatini samarali tashkil qilish hamda ish vaqtini tejash maqsadida audit tekshiruvlarining quyidagi turlaridan foydalaniladi:

ichki hujjatlarni audit qilish. Ushbu usul ichki hujjatlarni audit qilish auditning maxsus turi boʻlib, bunda Bankda qabul qilingan ichki meyoriy hujjatlar va ichki hujjatlar bank faoliyatini umum qabul qilingan amaliyotlar va standartlariga hamda Bankning oldiga qoʻygan strategik maqsadlariga mosligi hamda ularga Bank xodimlarining amal qilishi oʻrganib chiqiladi. Ushbu audit bank faoliyatida rahbariyat topshiriqlarining xodimlar tomonidan bajarilishi yoki bank faoliyatida shu bilan bogʻliq muammolar vujudga kelganda yoki ichki nazoratni baholash uchun amalga oshiriladi.

moliyaviy audit. Moliyaviy audit - bu bank buxgalteriya balansi, daromad va harajatlar toʻgʻrisidagi hisobot, pul oqimlari toʻgʻrisida hisobotlarda joriy moliyaviy holatini holisona va haqqoniy aks ettirilganligini baholash uchun oʻtkaziladi. Ushbu auditda hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini toʻgʻri bajarilganligi hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida oʻz vaqtida va aniq aks

ettirilganligi, bank aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari hamda kapitali holati va ulardagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi, bankning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va moliyaviy natijalari to'g'risidagi va bank rahbariyati faoliyatiga baho beruvchi moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiluvchi axborotlar tizimi mavjudligiga baho beriladi. Ushbu audit Bankni boshqarish faoliyatida foydalanilayotgan hisobotlarni to'g'riligini aniqlash uchun o'tkaziladi.

operatsion/boshqaruv auditi. Bu kengaytirilgan moliyaviy audit bo'lib, bunda moliyaviy audit natijalariga erishish uchun birlamchi ma'lumotlar yanada kengroq o'rganiladi, ya'ni meyoriy hujjatlar va ichki tartiblarga amal qilinishi, bank ish kuni tartibiga qat'iy rioya qilinishi, mijozlarga tez va aniq xizmat ko'rsatish, hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirilganligi, bankdagi pul mablag'lari, moddiy qimmatliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turuvchi blankalar kamomadi yoki ortiqchaligiga yo'l qo'ymaslik hamda belgilangan tartibda ularning saqlanishini tashkil etish holatlari va moliyaviy natijalar, ularning rejalarga monandligi tekshiriladi. Kengash tomonidan tasdiqlangan reja asosida tekshirish o'tkazishda audit turi aniq ko'rsatilmagan holda ushbu audit turi qo'llaniladi.

hujjatlarni rasmiylashtirilishini audit qilish. Hujjatlarni rasmiylashtirilishini audit qilishda Bankning ma'lum faoliyatida meyoriy hujjatlar talablariga asosan hujjatlarni to'g'ri va to'liq rasmiylashtirilishi o'rganib chiqiladi. Shuningdek, Bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirishi va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirilganligiga baho beriladi.

shartnomalar auditi. Shartnomalar auditi shartnomalar va ular bilan bog'liq operatsiyalarni o'rganish va baholashdir. Bunda tomonlarning shartnoma shartlariga amal qilishi, shartnoma shartlarining tegishli operatsiyaga muvofiqligi, shartnoma shartlarining mazmun mohiyati bank manfaatiga zid bo'lib, shartnoma bo'yicha amalga oshirilgan operatsiya natijasida bankka yo'qotishlar olib kelish ehtimollari mavjudligi tekshiriladi.

nazorat tartibi bo'yicha audit. Nazorat tartibi bo'yicha o'tkaziladigan auditda operatsiyalarning qonuniyligi hamda to'g'riligini doimiy ichki nazoratdan o'tkazish, ularning natijalari bo'yicha ma'lumotnomalar tuzish va rasmiylashtirish imkoniyatini yaratilganligi tekshiriladi. Shuningdek, bir marotaba o'tkazilgan audit natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etilishi hamda kamchiliklarning bartaraf etilishi yuzasidan berilgan tavsiyalar amaliyotga tadbiiq qilinganligi o'rganiladi.

elektron ma'lumotlarni qayta ishlash auditi. Elektron ma'lumotlarni qayta ishlash auditida bankdagi mavjud kompyuter dasturlari, ularning xavfsizligi, ularda ma'lumotlarni saqlanishi va zaruriyat tug'ilganda tiklash imkoniyatlari, dasturlarda qilingan o'zgarishlar va operatsiyalarni uzluksiz qayta ishlanishi, dasturlar beradigan

hisobotlarni realligi, xodimlarga elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanish uchun berilgan ruxsatlar va boshqalar o'rganiladi. Shuningdek, zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda bank operatsiyalari hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarini yuritish hamda hisobotlar tuzishda mehnat va mablag' sarfini qisqartirish ishlariga baho beriladi.

11-bob. Auditorlik hisoboti va tekshiruv yakuni bo'yicha chora-tadbirlar rejasi

45. Auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvi tugatilganidan so'ng zudlik bilan tayyorlanishi hamda audit maqsadlari, miqyosi, xulosalarni hamda har bir aniqlangan kamchilikni bartaraf qilishga doir batafsil tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Tavsiyalar aniqlangan muammolar va ularning kelib chiqish sabablarining qisqacha izohini, mavjud tavakkalchiliklarni, talab etiladigan chora-tadbirlarni, jumladan, bank ichki siyosatlarini va tartib-taomillarini ko'rib chiqishni, chora-tadbirlarni bajarish muddatlarini va ijrochilarni o'z ichiga olishi lozim.

46. Auditorlik hisobotiga tahliliy materiallar, izohlar hamda boshqa ishchi hujjatlar to'plami ilova qilinishi mumkin. Auditorlik hisoboti va tekshiruv bo'yicha ishchi hujjatlar Ichki audit boshqarmasi xodimlari tomonidan tayyorlanib Bosh auditorga taqdim etiladi.

47. Auditorlik hisobotlari bevosita Kengashga yoki Audit qo'mitaga Bosh auditor tomonidan taqdim etiladi. Hisobot elektron xujjat aylanish tizimi yoki dasturi orqali ham taqdim etilishi mumkin. Ushbu hisobotlarning nusxalari Boshqaruvga, shuningdek tegishliligi bo'yicha bankning alohida tarkibiy tuzilmalar rahbarlariga taqdim etiladi.

48. Ichki audit boshqarmasi xodimlari tomonidan aniqlangan asosiy kamchilik va takliflar tekshirish o'tkazilayotgan tarkibiy tuzilma rahbariyati tomonidan izohlab berilishi lozim. Zarur hollarda ushbu izohlar Kengash va Audit qo'mitaga taqdim etilishidan oldin auditorlik hisobotiga kiritilishi mumkin.

49. Bank Boshqaruvi o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi chog'ida aniqlangan kamchilik va qoidabuzarliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

50. Ichki audit boshqarmasi tekshirish jarayonida aniqlangan kamchilik va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vaqtida va tegishli ravishda bajarilishi ustidan keyingi nazorat Bankning auditdan o'tkazilgan yo'nalish bo'yicha mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Tekshirishdan keyingi nazoratni o'tkazish uchun javobgarlik zimmalarida bo'lgan tarkibiy tuzilmalari tomonidan Ichki audit boshqarmasiga chora-tadbirlar rejasining ijrosi bo'yicha ma'lumot taqdim etiladi.

Ichki audit boshqarmasi tomonidan mazkur ma'lumotlar o'rganilgan holda chora-tadbirlar rejasining bajarilishi va uning sifatiga baho berish maqsadida monitoring o'tkaziladi.

51. Ichki audit boshqarmasi tomonidan berilgan baho to'g'risidagi ma'lumot Kengashga auditorlik tekshiruv natijasida aniqlangan kamchilik va qoidabuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshirilishini nazorat qilish uchun taqdim etiladi.

12-bob. Bank Boshqaruvining majburiyati

52. Bank Boshqaruvi quyidagilar uchun mas'ul hisoblanadi:

Ichki audit boshqarmasini yillik byudjet doirasida zarur moliyaviy mablag'lar va resurslar bilan to'liq va o'z vaqtida ta'minlash;

Ichki audit boshqarmasini Bank strategiyasi va ichki siyosatlariga kiritilgan o'zgartirishlar, loyihalar, yangi bank mahsulotlari, bank tashkiliy tuzilmasi o'zgarishi hamda Bankda mavjud va yuzaga kelishi kutilayotgan tavakkalchiliklar yuzasidan o'z vaqtida xabardor qilib borilishini ta'minlash;

Ichki audit boshqarmasi xodimlariga Bankning elektron (dasturiy ta'minot) bazasi ma'lumotlaridan erkin foydalanish imkonini beruvchi sharoit yaratib berish;

audit tekshiruv jarayonida auditorlarga xavfsizlik talablariga javob beradigan mehnat sharoitini yaratib berish, audit tekshiruvini yetarli ma'lumot va hujjatlar bilan o'z vaqtida ta'minlash, audit uchun belgilangan vaqtning asossiz cho'zilishiga yo'l qo'ymaslik, tekshiruviga soxta, o'zgartirilgan yoki asliga nomuvofiq bo'lgan audit tekshiruv jarayonini chalg'ituvchi ma'lumot va hujjatlarni taqdim etilmaslik, audit tekshiruv natijasi bo'yicha aniqlangan holatlarni audit obyekt tomonidan asoslantirgan holda yozma izohlab berish kabi holatlarni nazorat qilish;

aniqlangan kamchilik va qoidabuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan Ichki audit boshqarmasi tomonidan tayyorlangan hisobotlar asosida o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, ularni joriy etish yoki amalga oshirilishini ta'minlash va Ichki audit boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan tavsiyalarni ko'rib chiqish;

audit tekshiruv natijalari bo'yicha ko'chma yoki masofaviy yig'ilish o'tkazish (yig'ilish Bank Boshqaruvi raisi yoki Bank Boshqaruvi a'zolaridan biri boshchiligida, Bosh auditor, audit obyekt rahbarlari hamda mas'ul xodimlar ishtirokida amalga oshiriladi).

53. Bank Boshqaruvi yoki uning bankda amalga oshirilgan (yoki amalga oshirilishi kutilayotgan) yirik bank operatsiyalari (bitimlar), qabul qilingan qarorlar va ichki hujjatlar hamda bank faoliyatiga doir boshqa masalalar yuzasidan tashabbuskor bo'lgan tarkibiy tuzilma rahbari Ichki audit boshqarmasini xabardor qilish yuzasidan mas'ul bo'lib, ma'lumotlarni o'z vaqtdan kechiktirilmagan holda Ichki audit

boshqarmasiga taqdim etib boradi.

54. Bank Boshqaruv bank faoliyatida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va boshqarish maqsadida ularni identifikatsiya qiluvchi ichki nazorat tizimini shakllantirish uchun javobgardir.

Tarkibiy tuzilma xodimlarning vakolat va vazifalarini aniq belgilab berilishini, ularning hisobdorligini hamda ularning vazifalarini samarali bajarilishini ta'minlashi kerak.

Bank Boshqaruvi Bankda nazoratni amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalar va boshqa tarkibiy tuzilmamalari tavakkalchiliklarni o'z vaqtida identifikatsiya qilishni, tizimda mavjud yoki kutilayotgan tavakkalchiliklarni aniqlashni ta'minlaydi. Shuningdek, har chorakda tavakkalchiliklarni baholash natijalari to'g'risidagi ma'lumotni Ichki audit boshqarmasiga berib boradi.

13-bob. Ichki audit boshqarmasi faoliyatini baholash

55. Kengash ichki va tashqi baholash orqali Ichki audit boshqarmasi faoliyatini baholab boradi va nazorat qiladi.

Ichki baholash Ichki audit boshqarmasi faoliyatini monitoring qilish, uning xodimlari faoliyatini va bilimini baholab borish orqali hamda taqdim etilgan auditorlik hisobotlari sifatidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Tashqi baholash Bankka aloqador bo'lmagan mustaqil ekspertlarni jalb qilgan holda Ichki audit boshqarmasi faoliyatini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Tashqi baholash besh yilda kamida bir marta o'tkazilishi lozim.

56. Kengash yoki Audit qo'mita davriy ravishda (yilda kamida bir marta) Bosh auditorning ishchanlik obro'si va malakasini baholashdan o'tkazadi.

Shuningdek, Audit qo'mita Bosh auditor bilan birgalikda davriy ravishda (yilda kamida bir marta) Ichki audit boshqarmasining har bir xodimini uning axborotni tanlash, tekshiruv o'tkazish va xulosalarni tayyorlash salohiyatidan kelib chiqib kasbiy mahorat darajasini baholab boradi.

14-bob. Ichki audit boshqarmasining tarkibiy tuzilmalar bilan o'zaro munosabatlari

57. Ichki audit boshqarmasi Bankda nazoratni amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalar va boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi.

58. Kengash tomonidan yillik audit rejasi Bankning nazoratni amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslangan holda tasdiqlanadi. Bunda, mazkur tarkibiy tuzilmalar tomonidan biznes jarayonlardagi mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchilik (xato, kamchilik, salbiy jarayon yoki holat, tahdid, zaiflik)lari to'g'risidagi ma'lumotlar har yili 1 dekabr

holatiga taqdim etilishi lozim.

Shuningdek, bankda nazoratni amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalar har chorak yakuni bo'yicha biznes jarayonlardagi mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar to'g'risida ma'lumotni Ichki audit boshqarmasiga taqdim etadi. Ichki audit boshqarmasi tomonidan yillik rejaga asosan o'tkaziladigan audit tekshiruvlarida mazkur ma'lumotlar chuqur o'rganilgan holda, tavakkalchiliklarni oldini olish, Bankning risk xaritasiga va risk profiliga o'zgartirish kiritish yuzasidan tavsiyalar berib boriladi.

Bankda mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklardan o'z vaqtida xabardor bo'lish, tavakkalchiliklarni oldini olish maqsadida, tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha tarkibiy tuzilma o'zining Bankda yuzaga kelgan tavakkalchiliklar bo'yicha bildirgan xulosalari Bank Boshqaruvining fikr-mulohazalaridan farqlanganda Kengashni xabardor etmagan bo'lsa, bu haqidagi xabarni Bosh auditorga yetkazishi lozim.

59. Ichki audit tekshiruvi jarayonida audit obyektida qo'pol tartibbuzarlik hamda mablag'lag'larni o'zlashtirish holatlari aniqlanib, mazkur holatni o'rganish uzoq vaqtni talab etsa, Bosh auditor tomonidan ushbu soha bo'yicha Bankning mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmasi rahbaridan alohida Ishchi guruh tuzgan holda o'rganishni tashkil etilishini talab qilishi mumkin.

15-bob. Ichki audit boshqarmasining O'zbekiston Respublikasi

Markaziy bank bilan o'zaro munosabatlari

60. Markaziy bank Ichki audit boshqarmasi xodimlari, shu jumladan Bosh auditor bilan uchrashuvlar o'tkazishga haqli va mazkur uchrashuvlarda bank faoliyatiga oid turli masalalar muhokama qilinishi mumkin.

61. Markaziy bank quyidagilar yuzasidan Kengashga yozma talabnoma kiritishi mumkin:

Ichki audit boshqarmasi tomonidan bank faoliyatidagi alohida masalalar va (yoki) Bankning ma'lum davr oralig'idagi faoliyati yuzasidan auditorlik tekshiruvini o'tkazish;

Markaziy bankka Ichki audit boshqarmasi vakolatiga kiruvchi alohida masalalar yuzasidan ma'lumotlarni taqdim etish;

Ichki audit boshqarmasi faoliyatini qonunchilik hujjatlari va mazkur Nizom talablariga muvofiqlashtirish.

62. Markaziy bank Bankdan Ichki audit boshqarmasi o'tkazgan tekshiruvlarga oid har qanday ma'lumotlar va hisobotlarni olishi va auditorlik tekshiruvi natijalarini muhokama qilishi mumkin.

16-bob. Ichki audit boshqarmasining tashqi auditor bilan o‘zaro munosabatlari

63. Muntazam nazoratni ta’minlash va olib boriladigan ishlarning takrorlanishidan qutilish uchun Ichki audit boshqarmasi Bank tashqi auditori bilan ishga doir munosabatlarni ta’minlashi va o‘z ishini kelishib olishi lozim.

64. Kengash tomonidan Ichki audit boshqarmasining tashqi auditor bilan tavakkalchiliklarning ma’lum turlari va ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilgan choralar yuzasidan vaqti-vaqti bilan maslahatlar o‘tkazilishini ta’minlanadi.

65. Ichki audit boshqarmasi va Bankning tashqi auditori hamkorligida malaka almashib boradi. Shuningdek, Ichki audit boshqarmasi ma’lumotlarni almashish orqali tashqi auditorlarga yordam beradi va ularning ishida ko‘maklashadi.

17-bob. Yakuniy qoidalar

66. Kuzatuv kengashi Ichki audit boshqarmasining tashkil etilishi va uning samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

67. Mazkur Nizom muntazam ravishda, biroq yiliga kamida bir marotaba Bosh auditor tomonidan ko‘rib chiqiladi, Nizomga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar Ichki audit boshqarmasi tavsiyasi asosida Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

68. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

69. Mazkur Nizomga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar Ichki audit boshqarmasi tavsiyasi asosida Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

70. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

71. Ushbu Nizomning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlari yoki Bank Ustaviga zid bo‘lsa, ushbu bandlar o‘z kuchini yo‘qotadi va ushbu bandlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgunga qadar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga va Bank Ustaviga amal qilinadi.